AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI



Toshkent – 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV

TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI

BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY

KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

Toshkent – 2025

UO‘K 314.151(575)(08)
KBK 607(543)
Y 83

Akademik Ubaydulla Karimov tavalludining 105 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2025. – 510 bet.

Mas’ul muharrir:

Bahrom Abduhalimov – tarix fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

O‘ktambek Sultonov – tarix fanlari doktori, professor.
Salima Eshonova – filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

Tahrir guruhi:

Laziz To‘rayev – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Akbar Idiyev, Maftuna Mirzayeva, Farrux Kamoliddinov,
Doston Tojiyev, Sherzod Karimov.

Ushbu to‘plamda qadimgi davrdan bugungi kungacha bo‘lgan sharqshunoslik sohasidagi dolzarb masalalar, tarix fani oldida turgan muammolar va ularning yechimlari, tarixshunoslikka oid tadqiqotlar, til, adabiyot hamda manbashunoslik masalalari, Sharq renessansi davri allomalari ilmiy merosining o‘rganilishi, qadimiy yozma manbalarning muomalaga kiritilishi kabi masalalarga qaratilgan tadqiqotlar o‘rin olgan. To‘plam sharqshunoslar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan. To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
direktori huzuridagi Kengashining 2025-yil 8-apreldagi 4-sonli
majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

© Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.

ISBN 978-9910-9030-5-2

Usmanov Ibrohim Sobirovich[1]

HANAFIY MAZHABIDA SHAR'IY HIYLALAR

SHARIAH TRICKS IN THE HANAFI MADHHAB

Abstract. *The article discusses the use of sharia tricks within Sunni madhhabs. The Hanafis paid more attention to Shariah trickery and used it as a way out of a difficult situation, which is why they used the term «Makharij» more often. Scholars have divided Shari'i tricks into possible and impossible. Impossible tricks have received a lot of criticism.*

«Ilm hiyal ash-shar'iyya» – shariatga muvofiq ishlatiladigan hiyla-tadbirlar ilmi bo‘lib, fiqh ilmiga tegishli boblardan biridir. Bu sohada yozilgan kitoblardan eng mashhuri – hanafiy mazhabining yirik vakillaridan biri – Imom Abu Bakr Ahmad ibn Umar Xassof Hanafiyning (vaf. 874-y.) yozgan *«Kitob al-hiyal»* asaridir. Unga Shamsulaimma Halvoiy (vaf. 1058-y.), Shamsulaimma Saraxsiy (vaf. 1056-y.), Imom Xoharzoda (vaf. 1091-y.) va boshqalar sharh yozganlar. Ayrim manbalarda Abu Hanifaga (699–767), yoki uning shogirdi Muhammad Shayboniyga (vaf. 805-y.) hiylalar haqida kitob yozgani nisbat beriladi. Misrlik olim Muhammad Abu Zahra (1898–1974) buni inkor etgan. Ammo Imom Muhammadning shogirdi Abu Hafs Kabir (767–832) ushbu kitobni ustozidan rivoyat qilgan, Saraxsiy ham bu fikrga qo‘shilgan [10: 140]. Saraxsiyning rivoyati orqali ham Muhammad Shayboniyning *«al-Maxorij fi-l-hiyal» kitobi «al-Mabsut»*da yetib kelgan. Chunonchi, Saraxsiy *«al-Mabsut»* asarining *«Kitob al-hiyal»* bobida quyidagicha imlo qilgan: *«Odamlar hiylalar kitobini Imom Muhammadning tasnifi ekanida ixtilof qilganlar, Abu Sulaymon Juzjoniy (vaf. 816 y. dan keyin) buni inkor etib, aytar edi: «Kimki, Muhammad Alloh rahmat qilsin uni, kitob tasnif qilib uni «hiylalar» deb nomlaganini aytsa, unga ishonmang, odamlarning qo‘lidagi narsalarni Bag‘dod varroqlari (qog‘ozsozlar) to‘plaganlar. Nodonlargina bularni ayblash uchun ulamolarimizga nisbat beradilar»... Ammo Abu Hafs (Kabir) buni Muhammadning tasnifi degan va undan uni (kitobni) rivoyat ham qilar edi. Mana shunisi eng to‘g‘risi (al-asahh). Zero, gunohlardan olib chiquvchi hukmlardagi hiylalar jumhur ulamolar nazdida joizdir. Ammo buni ayrim o‘zboshimchalar bilimsizligi hamda Qur'on va sunnadan kam o‘zlashtirgani sababidan ma'qul ko‘rmadilar (kariha)». Ammo hiylalarning joizligiga Qur'onda Allohning Ayyub alayhissalomga qasami borasidagi*

[1] Tarix fanlari nomzodi, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi.
E-mail: i.usmanov@yahoo.com.

hukmi dalil bo‘ladi: «(Yana Biz Ayyubga aytdik): ***«Qo‘lingga bir bog‘*** *(novdani)* ***olib, u bilan*** *(xotiningni)* ***urgin – qasamingni buzmagin»*** *(Sod, 44). Bunda Ayyub alayhissalomga ayolining nojoiz so‘zi uchun «albatta seni yuz qamchi uraman», deb qasam ichganda, vaziyatdan chiqish ta’limi berilgan»* [7: 209]. Ya’ni, Ayyub alayhissalom og‘ir paytlarda yonida turgan xotinini imkon topganida yuz tayuq urishga qasam ichib qo‘ygan edi, bu qasamga amal qilish mushkul ish edi. Shunda Alloh qasamini qanday ado etish yo‘lini Payg‘ambariga o‘rgatdi.

Shundan so‘ng Saraxsiy Qur’ondan Yusuf alayhissalomning ukasini olib qolish uchun hiylasi, Muso alayhissalom, Muhammad alayhissalomlarning qo‘llagan tadbirlaridan misollar keltiradi [7: 209–210].

Qur’oni karimda noto‘g‘ri hiylalar ham fosh qilinadi. Jumladan, A’rof surasida shanba kuni Allohga makr-hiyla qilgan qavm hamda ular giriftor bo‘lgan jazo haqida so‘z boradi.

«Al-Maxorij fi-l-hiyal» kitobining zamonaviy nashrida avval Muhammad Shayboniyning Abu Yusuf orqali Abu Hanifadan rivoyat qilgan 25 bobdan iborat kitob keltirilib, ketidan Saraxsiyning rivoyatidagi 9 bob keltiriladi, ayrim boblar yuqoridagi kitobdagi bilan takror [11].

Shayboniyning *«al-Maxorij fi-l-hiyal»* kitobi quyidagicha boshlanadi: *«Ya’qub ibn Yusuf Abu Hanifadan bizga rivoyat qildi, dedi: «Agar bir kishi turmush o‘rtog‘ini uch taloq yoki bir taloq qilsa-yu, ammo shunda taloq tushmasligi va eriga xuddi oldingi holatda qolishi uchun qandaydir hiyla bormi?» dedim. «Ha, bor», dedi. «Uchta yoki bitta taloqsan, inshaalloh, desin»* [11: 5]. Shundan so‘ng ushbu hiylaga asos bo‘lgan dalillar keltiriladi.

Xassofning hiylalar haqidagi kitobi esa Rasulullоh alayhissalomdan savol so‘ragan bir kishiga «Qur’ondagi oyat xabarini senga bermaguncha masjiddan chiqmayman» deb, ammo o‘sha majlisdan turib ketib, bir qadamlari masjiddan chiqqanda ikkinchisi masjid ichida turganda o‘sha oyat xabarini berganlari haqidagi hadis bilan boshlanadi, so‘ngra xalifa Umar (r.a.)ning tadbirlari qayd etiladi. Kitobning nashri 55 bobdan iborat [8].

Mazhablar ichida hanafiylar fiqhiy hiylalar haqida ko‘proq kitoblarida so‘z yuritganlar. Fiqhiy kitoblarida hatto maxsus boblar ham ajratganlar. Hanafiylarning hiylalar bilan birga assotsiatsiya qilinishi sababini tarixiy sharoitlar taqozosi bilan tushuntirilishi mumkin [4: 316]. Hanafiylar hiylalarni asosan yo‘l topish ma’nosida qo‘llaganlar. Ular shariat maqsadlarini buzishni, hukmlarni zoye qilishni ko‘zlamaganlar. Bular Qur’on, sunna, qiyos va ma’qul (aqlan va mantiqan to‘g‘ri qaror)ga tayangan holda amaliy hayotni yengillashtirish vositasi, deb e’tibor qilganlar, jamiyat muammolarini hal etish, kishilarning manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda ham foydalanganlar [13: 58–60]. Garchi Imom Shofeiy va ilk shofeiy ulamolar hiylalar masalasini ma’qul ko‘rmasalarda, ammo hanafiylarning al-hiyal yo‘nalishidagi adabiyotlari muvaffaqiyati shofeiy ulamolarni ham IX asrdayoq shu yo‘sinda kitob ta’lif etishga undadi: Mahmud ibn Hasan Qazviniy (vaf. 1048 yoki 1068-y.), keyingi davrda Ibn Hajar Asqaloniy (vaf. 1449-y.) va boshqalar. Molikiylar

ham hiylalar masalasida keskin qarshi turmaganlar, ayrim o‘rinlarda hanafiy hiylalarini ma’lum vaziyatlar uchun ma’qullaganlar. Hanabaliylar bu yo‘nalishda keskinroq mavqeni tutgan edilar [6: 257–258].

Mazhablarning hiylalarga yondashuvidagi bu xilma-xillik ularning ta’limotida shofeiy va hanafiylar kabi tashqi faoliyatga ustuvorlik berish, yoki hanbaliy va molikiylar kabi ichki faoliyat (niyatlar)ga urg‘u berish bilan izohlanadi. Shuningdek, shofeiylarda insonning tashqi faoliyatiga diqqatning jamlanishi (amallarga qarab hukm chiqarish), hanafiylarda odamlar manfaatlari uchun murakkab vaziyatlardan yo‘l topish, yoki buning aksi sifatida molikiylarda sadd az-zaroi’ qoidasini qo‘llab hiylalar yo‘lini yopish, yoki hanbaliylardagi ichki niyatlarning amallardan ustun turishi (innama-l-a’molu bi-n-niyyat) kabi mazhablar ta’limotidagi jihatlar ham masaladagi yondashuvga ta’sir ko‘rsatadi [6: 272–274].

Umuman olganda fiqhiy hiylalar hanafiylardan boshqa mazhablar kitoblarida ham muhokama qilingan. Ular ham masalalarning yechimi sifatida maqbul hiylalarni taklif etganlar:

Molikiy mazhabi – Imom Shotibiy (vaf. 1388-y.) o‘zining *«al-Muvafaqot»* asarida fiqhiy hiylalarga oid o‘nlab misollarni keltirgan.

Shofeiy mazhabi – Imom Abu Hotim Mahmud Qazviniy *«Kitob al-hiyal»* asarida fiqhning turli boblaridagi muammolarga yechim sifatida 70 dan ortiq hiylani keltirib o‘tgan.

Hanbaliy mazhabi – Ibn Qayyim Javziya (vaf. 1350-y.) savdo va boshqa sohalardagi turli masalalarga yechim sifatida qariyb 116 hiyla namunasini keltirib o‘tgan [3]. Umuman olganda, hanafiy va shofeiylar mazkur masalalarda ilg‘orroq bo‘lganlar.

Qayd etish lozimki, hanafiylar *«hiyal»* so‘zi o‘rniga *«maxorij»* (chiqish yo‘llari) so‘zini afzal ko‘rganlar, shuning uchun ham ularning kitoblari sarlavhalarida shu so‘z ko‘proq uchraydi [4: 318].

Shayboniy va Xassofning *«maxorij»* kitoblari Abu Hanifadan oldingi Kufa faqihlarining rivoyatlari ham o‘rin olgan. Sharqshunos Yozef Shaxt (1902–1969) bu an’ana Abu Yusufning shu mavzudagi yo‘qolgan kitobidan o‘zlashtirilgan degan [4: 318]. Xassof Payg‘ambar alayhissalomning o‘zlari gunoh ishdan to‘g‘ri ishga *chiqish* (*xuruj min al-ism ila-l-haqq*) yo‘lini Xaybardagi zakot yig‘uvchi omilga ko‘rsatib berganlari haqidagi hadis rivoyatini keltiradi. Unga ko‘ra, Rasulullоh alayhissalom bir odamni Xaybarga omil qilib tayinladilar. U yaxshi xurmo bilan Ul zotning oldilariga keldi. Rasulullоh (s.a.v.): «Xaybarning hamma xurmosi shundaymi?», dedilar. U: «Yo‘q, unday emas, yo Rasulullоh, biz buning bir so‘yini ikki so‘ga, ikki so‘yini uch so‘ga olamiz», – deya javob qildi. Shunda Rasulullоh (s.a.v.): «Bunday qilma. Yomonlarini dirhamlarga sotda, so‘ng o‘sha dirhamlarga yaxshisini sotib ol», dedilar.

G‘arb sharqshunoslari ichida Yozef Shaxt shar’iy hiylalar mavzusida jiddiy izlanishlar olib borgan. Uning mazkur yo‘nalishdagi qarashlari yaqin

kunlargacha sharqshunoslar orasida ustuvor bo‘lib kelgan edi. Shaxt 1920–1930 yillarda hanafiy mazhabiga oid hiylalarga oid uchta asarni nashr qilgan: Muhammad Shayboniyning «*Kitob al-maxorij fi-l-hiyal*», Saraxsiyning «*al-Mabsut*» asarida «*Kitob al-hiyal*» bobini, Ahmad ibn Umar Xassofning «*Kitob al-hiyal va-l-maxorij*», shuningdek, shofeiy Mahmud ibn Hasan Qazviniyning «*Kitob al-hiyal fi-l-fiqh*» asarini [4: 313]. Y. Shaxt Abu Hotim Mahmud ibn Hasan Qazviniyning «*Kitob al-hiyal fi-l-fiqh*» asarini tadqiq qilib, uning nemis tiliga tarjimasini amalga oshiradi. Asarning tadqiqot qismida Shaxt hanafiy va shofeiy mazhablarining fiqhiy hiylalar manbalarini solishtirib quyidagi xulosalarga keladi: «*Hanafiy manbalarida hiylalarning amaliy masalalarda joizligi va qonuniyligiga asosiy e’tibor qaratilsa, shofeiylarda nojoiz hiylalarning ta’qiqlanishiga urg‘u beriladi*» [5: 5–6].

Hanafiy va shofeiy mazhablari hiylalari o‘rtasida farqlardan biri – hanafiy hiylalari amaliy tatbiq etishga qulay, shofeiylarniki unday emas. Hanafiylarning hiylalari shariat qoidalariga oson ergashish, zarurat vaqtida shariat qoidalarini ochiqdan-ochiq buzish imkoniyatlarini cheklash maqsadida ishlab chiqilgan. Shofeiy mazhabi hiylalari esa kechroq, hanafiy mazhabiga raqobat yuzasidan shakllangan va mustaqil rivojlangan. Mazkur kitobni yuzaki ko‘rib chiqqanda ham u yerdagi hiylalar sun’iy ekani hamda amaliy tatbiq nuqtai nazaridan ahamiyati kamligi, fiqhiy hiyla tamoyiliga deyarli mos ham emasligi ko‘rinadi [5: 5–6].

Yozef Shaxt fiqhiy hiylalar haqida to‘xtab o‘tib, real hayot va yuridik ta’limotlar o‘rtasidagi tafovut, xususan, savdoga oid mavjud bo‘lgan huquqiy meyorlar aynan hiylalar orqali shariat talabalariga muvofiqlashtirilgan, deb fikr bildirgan. Y.Shaxt hiylalar talqinida nazariy va amaliy fiqh o‘rtasida katta tafovut mavjudligi, nazariy fiqh hayotdan ancha uzoqlashib ketganini da’vo qilib, «nazariya amaliyotga qarshi» qarashini ilgari surgan bo‘lsa, Shaxt qarashlarini tanqid qilgan Tokio universiteti olimasi Sato Xorii Shaxtning «nazariya amaliyotga qarshi» g‘oyasiga zid bo‘lgan «nazariya amaliyotga» nuqtai nazaridan hiylalarga e’tibor qaratish ularni to‘g‘ri tushunish imkonini berishini, ta’kidlaydi [6: 254]. Sato Xorii hanafiy olim Soib ibn Ali Samarqandiyning (vaf. XII asr) «*Jannat al-ahkam va junnat al-xussam*» asaridagi hiylalar mavzusida dissertatsiya himoya qilgan.

Shaxtga ko‘ra, hanafiylikdagi hiylalarni birinchi bo‘lib savdogarlar qo‘llaganlar, faqihlar esa uning natijalarini faqatgina qabul va qayd qilish bilan shug‘ullanganlar. Bu qabul qilish I/VII va II/VIII asrlarda sodir bo‘lgan va keyingi yillarda nihoyasiga yetgan. Faqihlar o‘z navbatida fuqarolik huquqidan ko‘ra yon bosuvchan savdo huquqini shakllantirdilar, tizimni buzmagan holda qonunni aylanib o‘tadigan huquqiy mexanizm yaratdilar, deb hisoblaydi Shaxt. Sato Xorii uning bu fikriga qo‘shilmaydi. Shaxtning shariatdagi nazariya va amaliyot o‘rtasidagi katta tafovut borligi, oddiy savdogarlarning mukammal fiqhiy qoidalarni o‘zgartirgani kabi mulohazalari hamda hanafiy va qisman shofeiylardan boshqa mazhablarning hiylalarga

munosabatini nazardan chetda qoldirgani kabi masalalarda munosabat bildiradi [4: 316].

Oʻz zamonasida Imom Shotibiy zamondosh huquqshunoslar qonun emas, balki kimningdir shaxsiy manfaatlari yoʻlida fatvolar chiqarishi, nafs yoʻliga yurib turli mazhablarning ruxsatlarini jamlab olishni kabi holatlarni tanqid qilgan. Shuningdek, oʻz asarlarida Shotibiy faqihlarning hiylalarni ishlatishda meyordan chiqishlarini ham keltirib, shariat umumeʼtirof etilgan va amal qilinadigan umumiy foyda uchun berilganini qayd etadi. Hiylalarni suisteʼmol qilish, bir necha mazhab ruxsatlarini bir yerga jamlash mazkur maqsadlarga zid kelishini taʼkidlaydi [15: 280]. Hanafiy faqih Abu Lays Samarqandiy (vaf. 985–1003-y.) ham haromdan qochish uchun sharʼiy hiylalarga murojaat qilishni *«joiz»* deb hisoblagan. Buning dalili sifatida Muhammad alayhissalomning bir soʻ xurmoni ikki soʻ xurmo evaziga sotib olgan kishiga sudxoʻrlikning oldini olish maqsadida «Xurmoyingni dirhamlarga ayrboshlab, soʻngra oʻsha dirhamlarga boshqa xurmo olasan», deb sharʼiy yoʻlni koʻrsatib berdilar [12: 598]. Sirojiddin Oʻshiy (vaf. 1179-y.) ham oʻzining *«Fatovoyi sirojiya»* asarining *«Kitob al-hiyal va-l-maxorij»* bobida hanafiylik mazhabi qoidalari asosida hiyla ishlatish va vaziyatlardan chiqishga oid misollar keltirilgan. Misol uchun, «Agar kishi ayoliga aytsaki, «Agar yarim qozon halol va yarim qozon harom narsa pishirmasang, taloqsan», desa, u holatda qozonga may solib, unda tuxum qaynatadi» [12: 594]. Yoki «falonchi bilan gaplashmaslikka uch taloq bilan qasam ichsa, yoʻli shuki, bir boin taloq qilib iddasi oʻtishini kutadi, soʻngra falonchi bilan gaplashaveradi. Soʻngra yana uylanib oladi». Yana bir hiyla, agar bir kishining ogʻzida luqmasi bor boʻlib, aytsaki, «agar yeb yuborsam ayolim taloq», yonidagi boshqasi aytsaki, «agar chiqarib tashlasang, qulim ozod». Buning hiylasi shuki, yarmini yeydi va yarmini begona odam uning buyrugʻisiz ogʻzidan olib tashlaydi» [12: 594]. Asarda yana shunga oʻxshash maishiy, ijtimoiy va iqtisodiy masalalardagi hiylalar bayon qilinadi.

Umuman olganda, sharʼiy hiylalar yurtimiz tarixida faqat ijtimoiy emas, boshqa ogʻir vaziyatlarda ishlatilgan muhim oʻrinlar ham bor. Jumladan, Ashtarxoniylar sulolasining uchinchi vakili Imomqulixon (1611–1642) oʻz oʻgʻli Iskandarxonni Toshkentga hokim etib tayinlaydi. Iskandarxonning Toshkent aholisiga oʻtkazgan zulmu zoʻravonliklari yalpi norozilikni keltirib chiqarib, natijada u oʻldiriladi. Oʻgʻlining oʻlimidan gʻazab otiga mingan Imomqulixon katta qoʻshin tortib Toshkentda qirgʻin boshlaydi. Jahl ustida «Oʻgʻlimning xuni uchun Toshkent aholisining qoni otimning uzangisiga yetmaguncha qirgʻinni toʻxtatmayman», deb qasam ichadi. Shu tariqa shaharda misli koʻrilmagan qirgʻin boshlanadi. Faqihlar esa, (*hiylai sharʼiya*ni qoʻllab), Imomqulixonni otda suvi uzangiga yetadigan hovuzga kirishi va hovuz suviga qatl etilgan odamlar qoni aralashtirilishi toʻgʻrisida fatvo chiqarishdi [14]. Shu bilan uning qasami amalga oshadi. Ayrim qavllarga koʻra, qon bilan toʻldirilgan hovuz ancha payt shu holatda turgan va undan

badbo‘y hid anqib yotgan. Keyinchalik shaharning Ko‘kcha dahasidagi bu joy «Sassiqhovuz» nomini olgan.

Yoki jadidlarning «al-Isloh» jurnalining 1915-yil 1-avgust, 14-sonida ham Mullo Sayyidahror Maxdum tarfidan so‘ralgan savollar chop etilgan. Savollar uchta bo‘lib, barchalari yangi kirib kelgan bank muomalasiga oid bo‘lgan. Shu savollarning ikkinchisi quyidagicha keltiriladi: *«Riboyi mahz bo‘lub harom bo‘lg‘on taqdirda aning (bank) bilan muomala va murobaha etmakga sijillati shar’iyyada aslo yo‘l va javoz (ruxsat) bormi?»* [1: 418]. Ushbu savolga jurnalning 1915–yil, 15–dekabrdagi 23-sonida Merkeli Mulla Xolmuhammad Mulla To‘raqulining javobi beriladi: *«Majallai sodiqa al-Islohni no‘mr 14 da muhtaram Sayyidahror Maxdum savollariga javob. Bonka (bank) ila muomala qilmakda mo‘tabar fatvolarda ko‘rsatilmish hiylai shar’iylar ila amal qilinsa, riboni gunohidan shubhasiz xalos o‘lub, shar’i sharif hukmi ila amal qilingan o‘lurdi. Va oluvchi va kotib va shohidlar hammalarida vaid shadididan xalos o‘lub, dunyo va din manfaatlarini ikkisida qo‘lidan ketmas edi..... Tujjorlarimiz hiylai shar’ ila muomala etsalar o‘z manfaatlari o‘lurdi, hiylai shar’ dedukimiz fatvolarda necha tasvir ila mazkurdur. Masalan...»* [2: 708–709]. Shundan keyin muallif misol tariqasida klassik moliyaviy hiylani keltirib o‘tadi. Maqola so‘ngida: *«Muqriz (qarz beruvchi) va mustaqriz (qarz oluvchi) va kotib va shohid hamma, riboiy gunohidan bari’ (omon) o‘lurlar. Vallohu a’lam»* [2: 708–709], deb tugatadi.

Hiylalardan haqiqatga erishish nazarda tutilgan, ular nazariyot va amaliyot o‘rtasini bog‘lash uchun qilingan harakat edi [10: 147]. Hanafiylar fiqhiy hiylalarni asosan shar’an joiz-nojoizga, muboh-makruh-haromga bo‘ladilar. Imom Shotibiy esa, botilligi bo‘yicha xilof bo‘lmagan (munofiq va riyokorlarning hiylalari); joizligi bo‘yicha xilof bo‘lmagan (majburlikda kufr kalimasini aytish); qarashlar farqlanib qolgan mavhum va noaniq-chigal hiylalarga ajratgan [13: 64]. Yuqoridagi taqsimotdan ko‘rish mumkinki, barcha ulamolar to‘g‘ri va noto‘g‘ri hiylalarni ajratganlar. To‘g‘ri hiylalarning ham talablari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular murakkab vaziyatdan halol yo‘lga olib chiqadigan chora sifatida talqin qilingan. Shuning uchun ham Imom Muhammadning hiylaga oid kitobi sarlavhasida «maxorij – chiqish yo‘llari» so‘zi keltirilgan.

Hanbaliy faqih ibn Qayyim Javziya (vaf. 1350-y.) *«A’lom al-muvaqqiin»* kitobida hiylalarni uch turga bo‘ladi: 1) harom bo‘lib, ta’qiqlangan biror narsaga erishish uchun tutilgan yo‘l-yo‘riq. Shariat qoidalariga mos kelmaydigan narsani hiyla orqali shar’iy ko‘rinishga keltirish; 2) qonuniy bo‘lib, u orqali erishilishi ko‘zlangan maqsad shariat qoidalariga zid emas, hiyla unga erishish uchun vosita sifatida qo‘llanadi. 3) boshqa maqsadlar uchun belgilab qo‘yilgan joiz yo‘l-yo‘riqlardan foydalanib, boshqa bir ko‘zlangan sahih maqsadga erishmoqchi bo‘lgan hiylalar [10: 142].

Demak, shariat tamoyillariga zid bo‘lgan fiqhiy hiylalar ulamolar tomonidan muhokama va tanqid qilingan. Shular qatorida Hakim Termiziyning (vaf. 932-y.) fiqhga oid asarlarida usuliy masalalar, *ashboh va-n-*

*nazoir*ga oid fikrlar, shar'iy hiylalar kabi mavzular muhokama qilinganini ko'rish mumkin [16: 29]. Hakim Termiziy ko'plab asarlarida fiqhiy mavzularni ko'taradi, o'z kitoblarida din hukmlarini botiniy jihatlar, ichki ma'naviy ta'sirlar nuqtayi nazaridan muolaja qiladi. U faqihlar murojaat qiladigan «fiqhiy hiylalar» masalasiga alohida e'tibor beradi. Fiqhiy hiylalarda adolat mezonini tark etgan faqihlarni Allohni aldashga urinish, din ko'rsatmalarini o'zgartirish, mansabdorlarga tilyog'lamalik qilishda ayblaydi. Zero, ba'zi faqihlar masalalarning illatini to'g'ri aniqlay olmay, yoki ba'zi yashirin illatlarni anglamasdan, noto'g'ri xulosalar chiqaradilar va shu bilan insonlar o'z haqqoniy majburiyatlarini bajarmasliklariga yo'l topib beradilar [9: 128–130], deydi. Termiziy faqihlarga tegishli hukm va fiqhiy hiylalar va boshqa shu kabi bir necha masalalarni *«al-Masoil al-afina»* (badbo'y masalalar) nomi ostida kichik risolada jamlaydi.

Xulosa. Hanafiylar hiylalarni shariatning muhim qismi deb hisoblab, ularni «*maxorij*», ya'ni hayotdagi murakkab vaziyatlardan «chiqib ketish» deb ataganlar. Hanafiylar *maxorij*larni yig'ib, alohida «*maxorij adabiyoti*»ni shakllantirishga muvaffaq bo'lganlar. Ular bu usulni qonuniy deb hisoblaganlar, ammo shu bilan birga odamlarga, jamiyatga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan hiylalardan ehtiyot bo'lganlar. Ularning bu xavotirlariga sherik bo'lgan molikiylar *sadd az-zaroi'* tamoyilini qo'llaganlar. Molikiylarning bu usuli hanafiylar taklif etgan yechimlardan farqli bo'lgan hukmlar ishlab chiqilishiga olib kelmadi [4: 357].

Hanafiylarning hiylalar bilan birga assotsiatsiya qilinishi, ular bu mavzuga ko'p murojaat qilish sababini tarixiy sharoitlar bilan tushuntirilishi mumkin.

Mazhablarning shar'iy hiylalarga munosabati ularning ichki usuliy qoidalaridan kelib chiqqan holda shakllangan.

G'arb islomshunosligida Y. Shaxt islom huquqidagi hiylalar mavzusi bilan fundamental tadqiqotlar olib bordi. Uning xulosalari uzoq muddat bu yo'nalishdagi ilmiy ishlarning yo'nalishini belgilab berdi. Ammo yaponiyalik tadqiqotchi Sato Xorii o'zining ilmiy tadqiqot ishida Y. Shaxtning fiqhiy hiylalar mavzusidagi qarashlarini tanqid qilib, o'zining mustaqil fikrlarini dalilladi. U o'z ishida hiylalar yoki *maxorij*lar fiqhning hayotdan uzilib qolgani ko'rsatkichi emas, balki «real hayotga fiqhiy ta'limotning muvaffaqiyatli tatbiqi», deb baholadi.

Hakim Termiziy o'z davridagi nojoiz fiqhiy hiylalarni tanqid qildi hamda ularning yechimi bo'yicha shariat maqsadlariga muvofiq bo'lgan o'z xulosalarini taklif etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Al-Isloh» jurnali. Toshbosma. – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondi. № 5938. 1915-yil 15-dekabr, 23-soni.

2. «Al-Isloh» jurnali. Toshbosma – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondi .№ 5938. 1915-yil 1-avgust, 14-soni.
3. Adam F. Prophetic Finance and Economics. Elektron nashr.
4. Satoe Horii. Reconsideration of Legal Devices (Ḥiyal) in Islamic Jurisprudence: The Ḥanafīs and Their «Exits» (Makhārij). Islamic Law and Society. Vol. 9, No. 3. – Leiden: Brill, 2002.
5. Schacht Joseph. Das kitab al-hijal fil-fiqh des Abü Hätim Mahmüd ibn al-Hasan al-Qazuini. Mit Übersetzung und Anmerkungen herausgegeben von Joseph Schacht // Beiträge zur semitischen Philologie und Linguistik, Heft 5, Hannover, 1924.
6. Valentino Cattelan. Between Theory(-ies) and Practice(-s): Legal Devices (Ḥiyal) in Classical Islamic Law. Arab Law Quarterly, Vol. 31, No. 3. – Leiden: Brill, 2017.
7. Abu Bakr Saraxsiy. Al-Mabsut. T. 30. – Bayrut: Dar al-ma’rifa, 1993.
8. Abu Bakr Xassof. Kitob al-Xassof fi-l-hiyal. – Qohira, h. 1314.
9. Juyushiy M. Al-Hakim at-Termiziy: dirosa li osorihi va afkorihi. – Qohira: Dar an-nahda arabiyya.
10. Jo‘zjoniy A. Islom huqushunosligi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2002.
11. Muhammad Shayboniy. Al-Maxorij fi-l-hiyal. – Qohira: Maktaba as-saqofa ad-diyniyya, 1999.
12. Sirojiddin O‘shiy. Al-Fatavo as-sirojiyya. Nashrga tayyorlovchi M.U.Bastaviy – Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya, 2011.
13. Soyih G‘onim Muhammad. Al-Hiyal al-mubaha va adillatuha inda-l-hanafiyya. Tikrit gumanitar fanlar universiteti jurnali. T.22. № 7. – Oktabr, 2015.
14. Тўраев Ҳ. Аштархоний Имомқулихон ва Жўйборийлар. https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/185-ashtarxoniylar.html.
15. Халляк В. История исламских теорий права: введение в суннитскую теорию права / пер. с англ. И.А.Царегородцевой. – Москва: Изд. дом ВШЭ, 2020.
16. Husayniy A. Al-Ma’rifa inda al-Hakim at-Tirmiziy. – Qohira: Dor al-kutub al-arabiyya, 1963.

M U N D A R I J A

SO‘ZBOSHI 3

TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK

Allayeva N.A. *Bobojon Safarovning «Xorazm xonliklariga tegishli tarixiy materiallar» asari borasida* 5
Пуговкина О. *Дневники О.Н. Маллицкой: об эпохе и судьбе русской интеллигенции* 9
Mehti-zade S.Ç. *Azerbaycan’ın ortaçağ kentleri Evliya Çelebi’nin «seyahatname»sinde* 16
Aminov H.A. *Ismoil Gaspiralining «Turkiston lamosi» asari haqida.* 22
Muhammadaminov S.M. *Movarounnahrda mug‘ullar davriga oid qozilik ishlarini yuritishga doir ikki asarning qo‘lyozmalari xususida* 29
Lutfillayev H.M. *Temuriylar davri tafsirlarida moturidiylik ta’limoti* 35
Abdupattayev M.M. *Ibn Xaldunning «Muqaddima» asarida yahudiylik va xristianlik dini rohiblari funksiyalarining yoritilishi* 39
To‘rayev L.A., Nizomova N.Q. *Mahmud Zamaxshariy «Rabi’ al-abror» asarining Yevropadagi qo‘lyozmalari tavsifi.* 42
Jaynarov O.H. *O‘zbekiston Milliy arxivining R-904 fondi advokatura tizimida o‘tkazilgan «tozalash» siyosatini yoritish manbasi sifatida.* 50
Musametov B.E. *Ibn Sinoning «Yurak dorilari» nomli risolasining 12-fasli haqida* 55
Abdurazzoqova-Abduraxmonova Y.M. *«Fotuhati shohiy» asari XVI asr Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlarni o‘rganishda muhim manba sifatida.* 61
Faromarzi F., Vohidova M. *Esdaliklar tarixiy manba sifatida (Mirzo Rahimbekning «Esdaliklar» asari misolida).* 66
Fayzullayev F.E. *Fazlulloh Ibn Ruzbehonning «Suluk al-muluk» asarining tadqiqi va tasnifi* 76
Kuranbayeva U. *Bir jumlada ikki asr tarixi bayoni.* 81
Mamadjanov A.A. *«Tuhfat al-xoniy» Mang‘itlar davri etnik hayotiga oid muhim manba* 85
Murodova R.D. *O‘zbekiston muzeylarida restavratsiya laboratoriyalarining tashkil topishi* 91
Nasirillayeva N.F. *Abdulla Nosirov yozma merosi va uning tasnifi* 97
Ostonov J.D. *Markaziy Osiyoning islomlashuviga bag‘ishlangan fransuz tilidagi ba’zi tadqiqotlar* 105
Xidirova G.R. *«Tarixi Rashidiy» asarida gidronimlar tavsifi* 112
Хуснутдинов Ф.Р. *Утерянный автограф зачётного сочинения А.Э. Шмидта о четверостишиях Хафиза* 117
Чориев Ш.Х. *Источнико-архивоведческий анализ банковского дела Туркестанского генерал-губернаторства* 121
Saparov S.X. *O‘zbekistonlik olimlarning kidariylar bo‘yicha tadqiqotlari.* 129

Ishiyama M. *The articles of Zarif Bashiri in The Turkistan Communist Party Newspaper «Turkiston»*. 134
Идиев А. *Китобат ул-атфол: Вклад Махмудходжи Бехбуди в развитие образования в Туркестане* 143

MARKAZIY OSIYO TARIXI

Sultonov O‘.A. *Turkiston xonliklari saroy devonxonasi shakllanishi masalasiga doir*. 149
Rahimov K.R. *O‘rta asr Buxoro kutubxonalari tarixidan*. 157
Jamolova D.M. *Hoji Muin publitsistikasida Turkiston tarixi masalalari*. 162
Azizpour Sh. *Persian-Central Asian artistic encounters on The Silk Road: Bandian & Panjikent in visual dialogue* 169
Axmatov A. *Buxoro jadid adabiyoti vakillarining 1917–1920-yillardagi taqdiri*. . 178
Djumaniyazova F. *Ilk «Turkon» Xotun – Xunak Xotun yoki Qabaj Xotun, Xunakxudot – Buxoroning ilk o‘rta asr turkiy hukmdorlari*. 182
Ismoilov Sh.Z. *X–XI asrlarda Xorazm aholisining etnik va diniy tarkibi (manbalar tahlili asosida)*. 189
Misa H.R. *O‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo tarixshunosligi va manbashunosligi bo‘yicha yangi tadqiqotlar: savdo aloqalari va iqlimshunoslik misolida*. 195
Karimov Sh.Sh. *Qo‘shvazirlik – Temuriylar davlat boshqaruvidagi o‘ziga xos tizim*. 200
Адилов Дж. *Герб Туркестанского генерал-губернаторства: история создания и его семантика*. 206
Aslonova A.A. *Buxoro adıblarınıng pedagogık faolıyati*. 213
Ermatova M.A. *Amudaryo bo‘limining mahalliy sud tizimida ayollarning o‘rni* 217
Hamrayev S. *Enazar elchi madrasasini Yekaterina II qurdirganmi?* 222
Jumaeva N.A. *From the history of the farming culture in Lower Zarafshan oasis (during late XIXS and early 20s)*. 228
Nosirov Sh.O‘. *Buxoro amirligidagi aprel voqealarida Mahmudxo‘ja Behbudiyning ishtiroki* 237
Quvvataliyev U.B. *Bo‘lat Soliyevning «O‘rta Osiyo tarixi» asari haqida* 241
Suvonkulov M. *Jizzax vohasi «turk» guruhining moddiy madaniyati (kiyim-kechak va uni tayyorlash asboblari misolida)* 246
Toshtemirova Sh.Sh. *Avestoda ayollar: muqaddas obraz, ijtimoiy mavqe va unutilgan tenglik* 253
G‘oyibnazarova M.O‘. *Mahmudxo‘ja Behbudiy: urf-odat va an’analar haqida*. 259
To‘rayeva G.B. *O.A. Suxareva tadqiqotlarida Buxoro shahrida suv ta’minoti, hovuzlar va bog‘lar joylashuvi haqidagi ilmiy-tarixiy mulohazalar* 264

ISLOMSHUNOSLIK

Usmanov I.S. *Hanafiy mazhabida shar'iy hiylalar*. 272
Ismatova N.A. *Buxoro amirligida pul vaqflaridan foydalanish amaliyoti (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)* 280
Мирджалалова Э.Р., Шарипова Г.У. *Проблема понимания и внедрения термина «Арабо-мусульманская культура» в исторических и исламоведческих дисциплинах* 284
Jumaniyozov M.D. *«Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida Qur'oni karim oyatlari va hadislar tahlili*. 291
Jo'rayev M.X. *Islom ilmlari tarixida hadis ta'limi*. 304
Mirzayev N.M. *Homidxo'ja Buxoriyning ilmiy merosi xususida*. 310
Dadamirzaev M.O. *Mavlono Sobitxonto'ra Namangoniy – Farg'ona fiqh maktabi vakili*. 315
Salimova D.A. *«Al-Isloh» jurnalida bank muomalasiga oid masalalar muhokamasi*. 320
Samsakova H. *Naqshbandiya-mujaddidiyaning Toshkent tarmog'i: Abdulmajidxon Eshon silsilasi*. 326
Sayfullaev M.S. *«Al-Izoh» jurnalining Turkiston matbuotidagi o'rni*. 330
Yunusova S.O. *«Al-Isloh» jurnalida «kiyim va qiyofat» mavzusi muhokamasi* . . 334
Hamdamova Sh.V. *Shayx Kamoliddin Husayn Xorazmiy – kubraviya tariqatining yetuk namoyondasi*. 341

XORIJIY SHARQ MAMLAKATLARI TARIXI

Karimov B.R. *O'rtaturk tili va o'rtabitik yozuv tizimining turkiy tamaddun tillari rivojidagi o'rni* 347
Yanar C. *Türk dünyasi dokuma mirasinda samsun yöresi dokumalardan bazi nakişlar (elibelinde, koçboynuzu, sandık, çakmak, çapraz)*. 353
Пилипчук В.Я. *К истории басмыльской государственности*. 363
Memmedova M.N. *Azerbaycan ve özbek halk kültüründe doğum ritüelleri* 365
Özkurt K. *From context to text: The foundation inscriptions of the tombs of the two enemy brothers Amir Timur and Yildirim Bayezid* 378
Тохтиев Ш.Р. *Социальная реклама и тематические особенности рекламного текста социальной направленности в Иране* 391
Xodjimuratova D.S. *Eron tarixida islom inqilobini eksport qilish tajribasi va uning oqibatlari*. 398
Kamoliddinov F.B. *Qirg'iziston va Ko'rfaz arab davlatlari: tarixiy aloqalar va zamonaviy hamkorlikning rivojlanish masalalari* 404
Nurumbetova S.R. *Afg'onistonda islomiy yo'nalishdagi ilk siyosiy tashkilot «Musulmon yoshlari»ning vujudga kelish tarixi* 409
Tojiev D.B. *Consultative meeting of Central Asian state leaders: historical context and future prospects* 413

Xamdamov E.I. *Ziyo Go‘kalp qarashlarida ixtiyoriy hayotni tushunish* 421
Xomidov D.I. *Jamoliddin Afg‘oniy diniy-falsafiy qarashlarining Nosirxon To‘raga ta’siri* 428
Yuldashov Sh.A. *XX asrning birinchi yarmidagi Sharqiy Turkiston madaniy hayoti* 432
Шаймергенова Г.А., Байдаров Е.У. *Перспективы развития ШОС в контексте Казахстанско-Китайского стратегического партнерства* 437

FILOLOGIYA

To‘xliyev B., Qurbanboyeva Z. *Ayyub – o‘zbek adabiyoti tarixidagi yangi nom* 443
Eshonova S.N. *Devonlar yig‘ma matni: talqin va yondashuvlar* 450
Kasımova S.A. *Masallarda karaçuha imgesinin epik-mifoloji anlam özellikleri* . . .455
Madaliyeva O.R. *Alisher Navoiy «Badoyi’ ul-bidoya»si qo‘lyozmalari: alif harfiga qofiyalanuvchi g‘azallarning matn tafovutlari* 462
Mehman A.H. *The creation of the Turkic peoples’ novel in the context of world literature.* 481
Rahmatova G.O. *«Devonu lug‘ati-t-turk»da keltirilgan she’rlarni tadqiq etish usullari.* 487
Sulaymonova H.M. *«Rasailu-l-Xavarazmiy» asari arab epistolyar adabiyoti namunasi sifatida* 493
Mahmadrajabov F.D. *Badri Chochiy devonining O‘zbekiston va Erondagi qo‘lyozmalari* 499

AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV

TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI

BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY

KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
direktori huzuridagi Kengashining 2025-yil 8-apreldagi 4-sonli
majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

Manzil: Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi 79.
Telefon: +998 71 262 54 61.
Faks: +998 71 262 52 77.
E-mail: berun1@academy.uz

